

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> March, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## CHILLA DAVRI SEPTIK KASALLIKLARI MUAMMOSI

Baymuratova Sanobar Gafurovna

Toshkent viloyati Chirchiq Tibbiyot kolleji

“Akusherlik va ginekologiya” fani oliy toifali o’qituvchi.

### Annotatsiya

Ushbu ma’ruza matnida chilla davri septik kasalliklar etiologiyasi, tasnifi, ularning klinik kechishi, kasalxona ichi septik kasalliklarning tarqalishi va ularni oldini olish, mastit bilan kasallangan ayollarni parvarishlash, chilla bo’limidagi ishlar, tibbiy xodimlarning vazifalari, xonalarni joriy tozalash va uning ahamiyati, septik kasalliklarni oldini olish, kasallangan ayollarni davolash va parvarishlash haqida tushuncha berilgan.

**Kalit so’zlar:** Chilla davri, septik kasalliklar, etiologiya, tasnifi, klinikasi, profilaktikasi.

### Kirish

Chilla davri septik kasalliklarning ko‘p uchrashi akusherlikda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Chilladagi septik kasalliklarni ko‘pincha mikroblarning bir turi (monomikrob infeksiya), ba’zan esa mikroblarning har xil turlari (polimikrob infeksiya) vujudga keltiradi. Ayollar reproduktiv salomatligini muhofaza qilish maqsadida tug‘ruqdan keyingi infeksiyon kasalliklar profilaktikasini talab darajasida yo‘lga qo‘yish talab etiladi.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> March, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## Mavzu bayoni

### **Chilla davri septik kasalliklari etiologiyasi:**

Chilla davridagi patologik holatlarga septik va septik bo'lmagan kasalliklar kiradi. Homiladorlik va tug'ruqning patologik kechishi, organizm himoya kuchlarining susayishi, mikroorganizmlarning antibiotiklarga chidamli shtammlarini paydo bo'lishi, surunkali infeksiya uchoklari mavjudligi (endogen infeksiya), tug'ruq vaqtida xosil bulgan jaroxat yuzalari orqali mikroorganizmlarning kirishi (ekzogen infeksiya), tibbiy asboblardan va parvarish buyumlarining tulik sterillanmaganligi septik kasalliklarni keltirib chikaruvchi omillar hisoblanadi.

Chilla davrida infeksiya 4 xil yo'l bilan tarqaladi:

- 1) limfa yo'llari orqali;
- 2) qon tomirlari orqali;
- 3) bachadon buyini kanali orqali;
- 4) jarohat yuzasi orqali.

Chilla davri septik kasalliklari ko'zgatuvchilari: patogen stafilokoklar, streptokoklar(40% hollarda), ichak tayokchasi, gonokokk, genital mikoplazm va boshkalar.

### **Chilla davri septik kasalliklari tasnifi:**

S.Sazonov, A.Bartel's tomonidan taklif kilingan chilla davri septik kasalliklari tasnifi septik jarayonlarning taraqqiyot bosqichini, rivojlanish dinamikasini urganish uchun qo'lay hisoblanadi. **S.Sazonov, A.Bartel's tasnifi** buyicha chilladagi septik kasalliklar yagona jarayon bo'lib, quyidagi boskichlarga bulinadi:

**Birinchi bosqich.** Infeksiya tug'ruq jaroxati soxasida chegaralangan bo'ladi.  
-oralik, qin devori, bachadon bo'ynidagi tug'ruq yarasi, endometrit.

**Ikkinchi bosqich.** Infeksiya birlamchi uchokdan tashkariga chikadi, leqin kichik chanoq soxasi bilan chegaralangan bo'ladi.

- metrit, parametrit, adneksit, pel'vioperitonit, son venalarining chegaralangan tromboflebiti.

**Uchinchi bosqich** Infeksiya kichik chanoq bo'shlig'idan chiqqan bo'lib, og'irligi jihatdan tarqalgan infeksiyaga yaqin turadi.

- diffuz peritonit, keng tarqalgan diffuzlashgan tromboflebit.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> March, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

**To'rtinchi bosqich.** Infeksiya butun organizmga tarkalgan bo'ladi.

- septisemiya, septiqopiyemiya, septik shok.

## Septik bo'lmagan kasalliklar:

- siydik oqmalari
- tug'ruq shoki
- chilla davridagi psixozlar

**Siydik oqmalari** tug'ruq jarayonida to'qimalar qisilganda (homila boshining kichik chanoq biror tekisligida uzoq vaqt turib qolishi), qovuk jarohatlanganda, akusherlik operatsiyalari qo'llanganda (kraniotomiya, akusherlik qisqichlari) paydo bo'ladi. Siydik oqmalarining belgisi siydik tuta olmaslik bo'lib, tug'ruqdan keyin bir necha kun o'tgach aniqlanadi, chunki nekrozlangan to'qima ma'lum vaqt o'tgach ko'chib tushib, o'rni teshik hosil bo'ladi.

**Tug'ruq shoki** odatda tug'ruqdan keyin kuzatiladi. Tug'ruq kuchli og'riqli va tez o'tganda, homiladorlik og'ir o'tganda, tug'ruq operatsiya yo'li bilan o'tkazilganda vujudga keladi.

**Chilla davridagi psixozlar** asab tizimi sust bo'lgan, turg'un bo'lmagan, turli ta'sirotlarga oson beriluvchan ayollarda kuzatilishi mumkin. Bemorda hayajonlanish (ko'zg'aluvchanlik), ko'ziga har narsa ko'rinishi, xushchakchak yoki aksincha ruxiy tushkunlik holati ruy beradi.

Chilladagi psixozga uchragan bemorlar ruhiy kasallar shifokori tomonidan davolanadi va natijada tezda sog'ayib ketadi.

## Chilla davri septik kasalliklari klinikasi:

**Tug'ruq yarasi** – oraliq, qin, bachadon bo'ynida bo'lib, bunda bemor jinsiy a'zolar soxasida og'rik sezadi, tana harorati kutariladi, yara yuzasi yiring bilan qoplanadi, atrofida shish va kizarish paydo bo'ladi.

**Davosi:** Mahalliy va umumiy. Yara 3% li vodorod peroksid, brilliant yashili bilan artiladi. Antibiotikli malhamlar surtiladi. Oraliq tikilgan bo'lsa choklar olinadi.



## Proceedings of International Educators Conference


Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> March, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

**Endometrit** – bachadon shillik kavatining yalliglanishi. Bemorda tana harorati kutariladi, Pul'si tezlashadi, bachadon involyusiyasi susayadi, qorin pasti va bel soxasida ogrik seziladi, loxiyalar yiringli va chirik xidli bo'ladi.



**Davosi:** Infeksiya tarkalishining oldini olish maksadida qorin pastiga muzli xalta qo'yiladi. Antibakterial terapiya utkaziladi. Bachadonni qisqartiruvchi dorilar va vitaminlar yuboriladi. Dezintoksikasion va desensibilizasiyalovchi teraPiya utkaziladi.

**Parametrit** – bachadon atrofidagi kletchatkalarining yalliglanishi. Yallig'lanish natijasida bu soxada infil'trasiya (taranglashish) bachadonni uragan holda ko'zatilib, tez tarkaladi va butun chanok kletchatkasini egallab, chanok devorlariga etadi. Chilla davrining 7-10 kunlaridan boshlanadi. Bemorning umumiy axvoli ogirlashadi, tana harorati kutariladi, et uvishadi, kuchli ogrik ko'zatiladi, ishtaxasi pasayib, uykusi buziladi, kungli aynib boshi ogriydi. Agar bemor vaqtida davolanmasa infil'trat yiringlaydi. Yiringni chikazish choralari kurilmasa abscess uzicha yorilib, peritonit yuzaga kelishi mumqin.

**Davosi:** Yiringlagan soxa qinning orqa gumbazi orqali punksiya qilinadi. Antibakterial terapiya utkaziladi, vitaminlar yuboriladi. Dezintoksikasion va desensibilizasiyalovchi teraPiya utkaziladi.

## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> March, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

**Sal'pingoofarit** – bachadon ortiklarining yallig'lanishi. Tug'ruqdan 10-12 kun o'tgach bemorning tana harorati ko'tarilib, ahvoli yomonlashadi, ishtahasi bo'g'iladi, qorinning pasti kattik ogriydi. Bachadon ortiklari kattalashib, bezillab ogriydi. Yallig'lanish surunkali shaklga o'tishi mumkin.

**Davosi:** Antibakterial, umumiy quvvatlovchi terapiya, dezintoksikasion, infuzion davo.

**Pel'vioperitonit** – chanoq qorin pardasining yallig'lanishi. Kasallik ko'pincha so'zak infeksiyasi zaminida vujudga keladi. Tug'ruqning 10-20 kuni to'satdan tana harorati 39-40 \* gacha ko'tarilib, junjiki, qorin pastida kuchli og'riq paydo bo'ladi. Ayol ko'ngli aynib, qusadi, kornining pasti tarang tortadi IIIyotkin-Blyumberg belgisi musbat bo'ladi. Bemorning umumiy ahvoli yomonlashib, uyquasi buziladi, tili qarash bog'laydi. Kasallik jarayoni har xil bo'lishi mumkin, ba'zan tana harorati asta-sekin normallashib tuzala boshlasa, ba'zida infeksiya tarqalib umumiy peritonitga aylanadi.

**Davosi:** Intoksikasiyaga qarshi oqsilli eritmalar, qon o'rnini bosuvchi preparatlar: gemodez, reopoliglyuqin qo'llanadi. Vitaminoterapiya, antibakterial davo o'tkaziladi. Agar yiring bo'lsa qinning orqa gumbazi orqali punksiya kilinib yiring olinadi.

**Tromboflebit** – vena devorining yallig'lanib, tromb hosil bo'lishi. Klinik belgilari: uzoq vaqt davom etadigan subfebril harorat, pul's tezlashuvi, boldir mushaklarida ogrik paydo bo'lishi, tomir yo'li bo'ylab seziladigan ogriq, qon ivishining tezlashuvi va boshkalar Ba'zida oyoq shishib, terisi qizaradi.

**Davosi:** Bemor oyoqlari baland ko'tarib yotqizib qo'yiladi. Qon ivishini normallash maqsadida antikoagulyantlar (geparin) yuboriladi. Antibiotiklar, desensibilizasiyalovchi preparatlar, umumiy quvvatlovchi, simptomatik terapiya o'tkaziladi.

**Akusherlik peritoniti** – qorin pardasining yallig'lanishi. Chilla davri infeksiyon kasalliklarining eng ogir shakllaridan biridir. Asosan kesar kesish operiyasidan keyin yuzaga keladi. Klinik belgilari tug'ruqdan keyin 2-3 sutkada paydo bo'ladi.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> March, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Harorat ko'tariladi, qorin shishadi, qusish, taxikardiya, qorin pastida ogriq, gipovolemiya, oshqozon-ichak parezi kuzatiladi.

**Davosi.** Jarrohlik va kompleks intensiv davodan iborat. Bachadon naylari bilan olib tashlanadi (ekstirpasiya). Qorin bo'shlig'iga drenaj naychalar solinib, qorin bo'shlig'i antibiotikli suyuqliklar bilan yuvilib turiladi. Infuzion terapiya o'tkaziladi: qon o'rnini bosuvchi suyuqliklar yuboriladi.

**Septisemiya** – umumiy og'ir septik kasallik bo'lib, qonga tushgan mikroblar ko'payib, qon bilan butun organizmga tarqaladi va zaharlaydi. Kasallik og'ir boshlanadi, tana harorati 40-41 \* gacha ko'tariladi, et uvishadi, bemor alahsiraydi. Teri va shilliq qavatlar rangsiz, toshmalar paydo bo'lishi mumkinqin, taxikardiya, bosh og'rishi, ko'ngil aynishi, nafas olish tezlashadi, oshqozon-ichak yo'lida o'zgarish bo'lib, qabziyat yoki ich ketish kuzatiladi

**Septikopiemiya** - o'ka yoki boshqa a'zolarida septik o'choq hosil qilib kechadigan eng og'ir septik kasallik hisoblanadi. Bunda mikroblar metastatik o'choqlardan har zamonda qonga o'tib. yangi uchoqlar hosil qiladi va ular yiringlanadi. Bemorning ahvoli og'ir, tana harorata yuqori, qaltiraydi, pul's tezlashadi.

**Davosi:** Septisemiya va septikopiemiya quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

- bemorni to'g'ri parvarishlash (choyshab, kiyimini tez-tez almashtirish, og'iz bo'shlig'ini borat kislotasining kuchsiz eritmasi bilan artib turish, teri qoplarni artib turish, tashqi jinsiy a'zolarini yuvib turish).
- bemorni oson hazm bo'ladigan kaloriyali ovqatlantirish, yetarli darajada suyuqlik berish.
- antibiotikoterapiya, dezintoksikasion davo o'tkazish.
- umumiy quvvatlovchi va simptomatik davo.

**Chilladagi mastit** – sut bezlarining yallig'lanishi. Sabablari: ko'krak uchining yoriqlari, laktostaz (sut turib kolishi). Kasallik qo'zg'atuvchisi tilla rang stafilokok.

Klinik bosqichlari:

- 1)Serozli mastit
- 2)Infil'tiv mastit
- 3)Yiringli mastit.

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> March, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

4)Flegmonoz

5)Gangrenoz.

Bemorning harorati ko'tariladi, et uvishadi, sut bezlari og'riydi, kattalashadi, bosh ogrishi, holsizlik kuzatiladi. Qo'ltiq osti bezlari kattalashadi, paypaslaganda kasallangan sut bezi harorati sog'lom bezinikidan yukoriroq bo'ladi. O'z vaqtida davolanmasa yiringli mastit kuzatiladi. Bemorning axvoli ogirlashadi, harorat yanada ko'tariladi, sut bezidagi infil'trat kattalashi,. yumshaydi.

**Davosi:** Sut bezlari sogiladi. Sut kelishini kamaytirish uchun suyuqlik miqdori cheklanadi, ko'krak maxsus boglama bilan kutarib qo'yiladi, kasallik davrida bolani ko'krak bilan emizish man etiladi. Antibiotiklar, simptomatik davo qo'llanadi. Yiringli mastit xirurgik usulda davolanadi – sut bezi kesiladi, yuviladi, drenajlar qo'yiladi, antibiotiklar yuboriladi.

## Chilla davri septik kasalliklari profilaktikasi:

1. Homiladorlik paytida muntazam shifokor nazoratida bo'lib, infeksiya xavfi bulgan ayollarni aloxida dispanser guruxiga olish, ular bilan kerakli davolash-profilaktika ishlarini olib borish.
2. Tug'ruqni to'g'ri boshqarish
3. Tug'ruq asoratlarining oldini olish (qog'onoq suvining vaqtdan oldin ketishi, tug'ruqning cho'zilib ketishi, tug'ruq shikastlari, tug'ruqda qon ketishi).
4. Tug'ruqda qinni sanasiya qilish
5. Tug'ruqdagi jarohatlarni choklash.
6. Chilla davrida bachadon subinvolyusiyasining oldini olish.
7. Chilladagi infeksiyon kasalliklarni o'z vaqtida aniqlab, davolash
8. Sanitariya- epidemiologiya qoidalariga to'liq amal qilish.

## Adabiyotlar:

1. Ya. N. Allayorov. "Akusherlik va ginekologiya" Toshkent – 2013 yil.
2. A.A. Qodirova, Yu.Q. Jabborova «Akusherlik» Toshkent, 1993 yil
3. M.A.Fozilbekova, X.S. Zayniddinova «Akusherlik va ginekologiyada feldsherlik ishi» Toshkent, 2003 yil



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> March, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

### Internet saytlari:

[WWWhttppl/tibbiyot.UZ/](http://WWWhttppl/tibbiyot.UZ/)

[WWWhttppl/Sorum.ZiyoUZ.com](http://WWWhttppl/Sorum.ZiyoUZ.com).



# E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

